

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ФАНЛАР АКАДЕМИЯСИ
АБУ РАЙҲОН БЕРУНИЙ НОМИДАГИ
ШАРҚШУНОСЛИК ИНСТИТУТИ

Гувоҳнома № 0680-16.02.2018.
ISSN № 2181-9017

М У Н Д А Р И Ж А

МАНБАШУНОСЛИК

1. Азимов Х. Будда динининг Хитойга кириб боришида Марказий Осиёлик роҳибларнинг ўрни (Хитой манбалари асосида) 3
2. Абдухалимов Б., Мухаммадаминов С. О рампурском и ташкентском списках сочинения «Матла‘ ан-нуджум» Абу Хафса ан-Насафи 19
3. Муратов А. Умар Насафийнинг “ат-Тайсир фи-т-тафсир” асарига асос 30 29
4. Fayzullo F. Amir Temurning fe’l-atvori va yosoqi ta’rifi (Hofizi Abruning “Zubdat at-tavorix” asari asosida) 39

ТАРИХ ВА ТАРИХШУНОСЛИК

1. Кочкарова Э. Источники по проблеме Российской системы образования в Туркестанском крае 59
2. Алимджанов Б. (История деятельности Верненского (Алматинского) филиала Русско-Азиатского коммерческого банка 71

ИСЛОМШУНОСЛИК

1. **Султонов Ў.** Ўрта Осиё хўжаларининг сакраллашуви масаласига доир 85
2. **Кенжабоева Р.** Бурҳониддин Марғинонийнинг “Ҳидоя” асарида вақф қилувчининг вақф мулки устидаги ҳуқуқлари масаласи 97

ФАН ВА МАДАНИЯТ ТАРИХИ

1. **Comstock-Skipp J.** Can we really call it the “Bukhara School”? Sheybanid arts of the book in the 16th century..... 106
2. **Олимжонов Ҳ.** Тошкент оммавий кутубхонаси тарихи *(1870–1889 йиллар)*.....134

ТИЛ ВА АДАБИЁТ

1. **Ҳамроева О.** Шамсиддин Қайс Розийнинг “Ал-мўъжам фи маъойир ашъор ал-ажам” асари тадқиқи..... 145

Абдуллаева М. Кичик адабий жанрларда анъанавий мотивлар таҳлили 154

ЯНГИ НАШРЛАР

1. **Раҳимжонов Д.** Нодир қўлёзманинг факсимиле нашри 172
2. **Бўриев О.** Истахрий. “Китаб ал-масалик вал-мамалик” асарининг ўзбек тилига таржимаси 176

ЎзР ФА
Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти Илмий кенгашининг 2025 йил 25 декабрдаги 9-сонли мажлиси қарорига кўра нашрга тавсия қилинди.

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ

Баҳром Абдуҳалимов
(Бош муҳаррир)
Сурайё Каримова
(Бош муҳаррир ўринбосари)
Салимахон Эшонова
(Масъул котиб)
Наталья Каримова
(Рус тили муҳаррири)
Акрам Ҳабибуллаев
(Инглиз тили муҳаррири)

Аҳмедов Ашраф
Бобожонов Бахтиёр
Баҳодиров Роиқ
Бўриев Омонулло
Дагели Жанин
Жуманазаров Абдусаттор
Исломов Зоҳиджон
Қориев Одил
Мўминов Аширбек
Раҳимжонов Дурбек
Султонов Ўктам
Ходжаев Аҳад
Юсупова Дилором
Ғуломов Санжар
Ҳасанов Маҳмуд

Манзилимиз:
100170. Тошкент ш., Мирзо Улуғбек кўчаси, 79
Мурожаат учун:
Телефон: *(8 371) 262-54-61,*
Факс: *(8371) 262-52-77*
E-mail: beruni1@uznet.uz

A. Muratov

Primary Sources Used in "at-Taisir fi-t-Tafsir" by Umar Nasafi

Most manuscripts housed in the depositories of our country are associated with Islamic sciences, in particular, tafsir, hadith, fiqh, aqida, logic, and linguistics. One of such manuscripts is "at-Taisir fi-t-Tafsir" by Umar Nasafi (1074–1142). The manuscript is dedicated to the science of tafsir and consists of five volumes. The article discusses the primary sources the scholar used in the work.

Presently, five manuscript copies of this work are stored in the depository of the Abu Rayhan Beruni, Institute of Oriental Studies at the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan. The source clearly speaks of a unique method of interpreting the verses of the Koran in accordance with the Maturidi school of thought and Hanafi madhab. The scholar makes reference to most authoritative sources in the book.The main thing that prompted the scholar to write a commentary was the need for a book that would convey the essence of both creedal and fiqh issues at that period.

The scholar paid a great attention to overcoming the problems of society and solving peoples' problems in the work by referring to most reliable sources, which increase the value of the copy making it one of the most authoritative sources of Hanafi madhab.

Key words: *Abu Hafs Umar Nasafi, tafsir, at-Taysir fi-t-Tafsir, verse, faith, hadith, scholar of the period, method, style.*

F. Fayzullo

Amir Temurning fe'l-atvori va yosoqi ta'rifi
(Hofizi Abru "Zubdat at-tavorix" asari asosida)

O'rta asrning ko'zga ko'ringan davlat arbobi, mohir sarkarda va sulola asoschisi Amir Temurning (1336–1405) tarix sahnasidagi faoliyati haqida o'z davridayoq ko'plab asarlar yozilgan va unga turli rakurslarda

baho berilgan. Xususan, G'iyosiddin Ali (XIV–XV), Nizomiddin Shomiy (vaf. 1412) va Sharafiddin Ali Yazdiy (vaf. 1454) asarlarida Amir Temur tarixi "Fathnoma" sifatida yoritilgan bo'lsa, Ibn Arabshoh (1388–1450) asarida uning yurishlariga nisbatan tanqidiy munosabat bildirilgan [22: 7]. Sharqshunos olim V.V.Bartold (1869–1930) aytganidek bu davr tadqiqotchisi: "Materiallarning tanqisligidan emas, balki ko'plab kutubxonalarga tarqalib ketgan, tanqidiy yondashish eng avvalo, tanqidiy nashr etishni taqozo etadigan materiallarning ko'pligidan qiyinchilikka duch keladi" [2: 199].

Amir Temur tarixiga doir ilk asar "Ro'znomai g'azovoti Hindiston" ("Hindiston g'azovoti kundaligi") G'iyosiddin Ali tomonidan yozilgan va unda asosan Sohibqironning Hindistonga qilgan yurishi tasvirlangan. [19]. Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma" asari ham Amir Temur kechinmalari bilan bog'liq voqealar tarixini to'liq qamrab olmagan.

Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asari esa o'z davri tarixnomalari ichida ishonchli manbalar asosida yozilgani, voqealar izchilligi va keng qamrovliligi bilan mukammalroq hisoblanadi. Unda "Birinchi maqola. Hazrat Sohibqironning fe'l-atvorida sodir bo'lgan va ahvolida yuz bergan (voqea)lar haqida so'z" nomli sarlavha ostida bu mavzu ilk bora yoritilgan. Tarixchi mavzuni bir oz badiiy tarzda ifodalab, Amir Temur ta'rifini madh etuvchi she'rlar keltiradi [13: 84*б*–85*а*]. Asarning "So'z nazmi (yoki muqaddimasi) va Sohibqiron maqtovidan bir qanchasi zikrida" faslidagi 156 misradan iborat qasidasini ham "Zafarnoma"ga kiritadi [1] [13: 85*а*–86*б*]. Ibn Arabshoh ham "Ajoib al-maqdur fi tarixi Taymur" ("Temur tarixida taqdir ajoyibotlari") asarining "Temurning badoatli sifatlari va uning ato qilingan tug'ma xislatlari va tabiati haqida bo'lim" faslida Amir Temurning tashqi ko'rinishi, fe'l-atvori va ayrim xislatlariga bir oz to'xtalib o'tadi [22: 393]. Ammo uning ba'zi fikrlari tadqiqotga muhtoj. Chunki u ko'p o'rinlarda o'zga kishilardan eshitganlarini tahlilsiz keltiradi. Shunday bo'lsa-da, mazkur asar o'zida Amir Temur kechinmalariga oid muhim faktlarni ham jamlagan.

[1] "Zafarnoma"ning mazkur qismlari o'zbek tiliga tarjima qilingan. Qarang: [14: 15–24].

Temuriylar davri (1405–1507) tarixnavislaridan yana biri Hofizi Abru[1] nomi bilan tanilgan tarixchi va geograf olim Shihobiddin Abdulloh bin Lutfulloh (1361–1430) Amir Temur bilan 1384- yil Eronning Zinjon viloyatiga qarashli Sultoniya[2] shahri egallanishi chog'ida uchrashgan va uning xizmatiga o'tgan [8: 5]. Sohibqironning keyingi yurishlarida tarixchi sifatida ishtirok etib voqealar tafsilotini qayd etib borgan. Shuningdek, u davlatning diplomatik aloqalarida, kotiblik va bunyodkorlik ishlarida ham faoliyat yuritgan [25: 15; 953; 1011]. Amir Temur vafotidan so'ng o'gli Shohrux Mirzo (1377–1448) devoni xizmatiga o'tib, uning topshirig'i bilan tarixiy va tarixiy-geografik mavzularda o'ndan ortiq asar yozgan. Ular orasida muarrixning "Zayli Zafarnomai Shomiy" ("Shomiyning "Zafarnoma"siga ilova") [5] va "Zubdat at-tavorixi Boysung'uriy" ("Boysung'ur tarixining sarasi") asarlari Sohibqiron tarixiga oid birlamchi manbalardir. Zero, muallif bu kitoblarni o'zidan oldingi tarixchilarning (G'iyosiddin Ali, Nizomiddin Shomiy) asarlari, Amir Temur devonining rasmiy hujjatlari va o'zi guvoh bo'lgan voqealar asosida ifodalagan, Mavlono Ali Badri Hiravi (XV asr) va Mavlono Bahovuddin Hojilarning (XV) nazmiy asarlari qatorida fors va arab shoirlari ijodi namunalaridan ham foydalangan [25: 1034].

Hofizi Abru Temuriylar davri tarixnavisligida tarixiy voqealarni xronologik tartibda yozish uslubini birinchi bo'lib qo'llagan va bu tartib undan keyingi tarixchilar asarlariga asos qilib olingan. O'z navbatida, Fasih Xavofiy (1375–1442), Abdurrazzoq Samarqandiy (1413–1482), Mirxond (1433–1498) va Xondamir (1475–1535) o'z tarixnomalarini yozishda bu asarga birlamchi manba sifatida tayanganlar [1: 4; 12: 18; 17: 24]. Binobarin, "Zubdat at-tavorix" oxirgi uch asr mobaynida Amir Temur va Temuriylar davrini o'rganuvchi olimlar e'tiborida bo'ldi[3].

"Zubdat at-tavorixi Boysung'uriy" asari Shohrux Mirzo topshirig'i va uning o'g'li Boysung'ur Mirzo (1397–1433) homiyligida 1423–1427

[1] Hofizi Abru Amir Temur bilan uchrashgunga qadar Sulton Ahmad Jaloyir (vaf. 1410) devonida kotiblik lavozimida ishlagan. Hofizi Abru haqida yana qarang: [9: 40–42; 10: 341–342; 20: 38–43].

[2] Sultoniya shahri Elxoniy Sulton Abu Said (1305–1335) vafotidan so'ng, to Amir Temur tomonidan egallangunga qadar Jaloyiriylar (1340–1410) hukmi ostida bo'lgan. Bu shaharda 1394 yil 22 mart kunida Temuriylar xonadonining yirik vakillaridan biri Ulug'bek Mirzo ibn Shohrux Mirzo (1394–1449) tavallud topgan.

[3] Hofizi Abruning "Zubdat at-tavorix" asariga doir tadqiqotlar haqida qarang: [3: 74–97; 21: 188–197].

yillar oralig'ida yozilgan. U umumiy tarixga bag'ishlangan "Majma' at-tavorix"ning ("Tarixlar majmuasi") to'rtinchi jildi bo'lib, mazmunan ikki qismdan (Amir Temur va Shohrux Mirzo davri tarixi) iborat. Unda 1336 yildan to 1427 yilgacha kechgan tarixiy voqealar xronologik tartibda keltirilgan.

"Zubdat at-tavorix"da Amir Temur saltanati tarixiga bag'ishlangan "Amir Sohibqironning fe'l-atvori, xulqi va yosoqi tarixidan muxtasar xulosasi bayoni" [25: 7–34] nomli maxsus fasli mavjud[1]. Temuriylar davri tarixnavislaridan Hofizi Abru bu mavzuni birinchi bo'lib o'z asariga alohida maqola sifatida kiritgan.

"Zubdat at-tavorix" asarining "Amir Sohibqironning fe'l-atvori, xulqi va yosoqi tarixidan muxtasar xulosasi bayoni" faslida Amir Temurning dunyoga kelishidan to vafotiga qadar xatti-harakati, hayoti, fa'oliyatida sodir bo'lgan ishlari haqida keng ma'lumot berilgan bo'lib, ularning aksariyati boshqa manbalarda uchramaydi [24: 2*a*–7*a*]. Xususan, unda Amir Temur shaxsiga tegishli fazilat va odatlar dastlab qisqa misollar orqali keltirilgan, ularning har biri keyingi boblardagi voqealar jarayonida xronologik tartibda batafsil yoritilgani e'tiborga sazovor.

XIV–XV asr mualliflari ichida Hofizi Abruning Amir Temur siyosiy faoliyati va tarixiy jarayonlariga guvoh o'laroq keltirgan ma'lumotlari aniq va keng ko'lamliligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, muallif bu haqda: "Haqiqatga yaqini shu erurkim, ushbu arzga yetkaziluvchi mavzu guvohligimizdan tashqari narsa emasdir", deb tasdiq etgan [25: 9].

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Hofizi Abru va Sharafiddin Ali Yazdiy bir vaqtda ikki joyda (Hirot va Fors viloyatlari) bir mavzuda o'z tarixnomalarini yozishni boshlaganlar. Bu ikki asar Amir Temur tarixini to'liq qamrab olgan ilk asarlar bo'lib, ko'p o'rinlarda bir-birini to'ldiradi.

Amir Temurning shaxsiy fazilatlari va uning ajdodlari ta'rifida. Hofizi Abru asarlarida Amir Temurning xos fazilatlarini zikr etar ekan, uning oliyhimmatli shoh, kayhon[2] darajali podshoh bo'lganini nazmda shunday ifodalaydi:

[1] Ushbu maqolada "Zubdat at-tavorix" matnlari tarjimsi uchun asarning Tehron nashri asos qilib olindi. Chunki mazkur tanqidiy nashr asarning Eron (Malik, №4166, №4163), Turkiya (Fotih, №4370/I) kutubxona va qo'lyozma fondlarida mavjud mukammal nusxalari asosida amalga oshirilgan. "Zubdat at-tavorix"ning nusxalari haqida yana qarang: [9: 40–42; 10: 346–347].

[2] Kayhon – osmon, olam.

Aqlu jon dar yak vujudu, mulku din dar yak badan,
Mehru mah dar yak kulohu, moh dar yak osmon [25: 9].

***Mazmuni*:** *Oyu quyosh bir gumbazda, to'lin oy bir osmonda [bo'lganidek],*
Aql va jon bir vujudda, mulk va din bir tanda [erur].

Muallif ta'rifiga ko'ra, Amir Temur go'dakligidanoq odob o'rganish, xat-savod chiqarish, ot minish, kamondan o'q otish bilan shug'ullanib, bu borada tengdoshlaridan o'zib ketgan. Ot minib, qurol-aslahalar bilan turli mashqlar bajarishga, harbiy sohaga mayli baland bo'lgan, va harbiy hiylalarni mukammal darajaga etqazgan [25: 45–46]. Shuningdek, muarrix uning jasorati, tafakkuri va ishlarda tadbirli bo'lganini quyidagicha e'tirof etadi: "Mulk ishlari borasida erishgan har bir yutug'i uning namunali va go'zal sa'y-harakatlari, teran fikri, to'g'ri o'ylangan tadbirlarining natijasi edi. Farzandlari-yu nevaralari barcha ishlarda uni o'z hayotlarining dasturchisi, ish-yumushlarining tadbirchisi hisoblar edilar" [25: 9–10]. Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"sida esa faqatgina sohibqironning yoshligida ot minish, chavandozlikka moyil bo'lgani, o'n yoshidan to o'smirlik yoshigacha ov qilish va jangu jadal qoidalarini o'rganish bilan shug'ullangani haqida yozilgan, xolos [13: 88*аб*]. Odob, ta'lim o'rganishi va boshqa xislatlari borasida esa ma'lumot uchramaydi.

"Zubdat at-tavorix" asari debochasi vazifasini o'tagan ushbu fasldagi Amir Temurga oid maqtovlarni o'sha davr tarixnavisligi an'anasi deyish mumkin. Bular bilan asarga baho berish o'rinli emas. Negaki, Shomiy va Yazdiylardan farqli ravishda Hofizi Abru tarixiy jarayonlar va faktlarni ifodalar ekan, kerakli o'rinlarda adolatsizlikni tanqid ham qilgan.

Hofizi Abru Amir Temur ajdodlari haqidagi manbalarni ham chuqur o'rgangani "Zubdat at-tavorix"da o'z aksini topgan. Asarning "Amir Sohibqironning oliy nasabi va nomdor ajdodlari sharhi va muborak tug'ilishi bayoni" [1] nomli keyingi faslida uning 14-bobosi Alonquvogacha shajarasi va 5-bobosi Qorachor No'yon va undan tarqalgan avlodlar haqida batafsil ma'lumot bergan [25: 34–44]. Bu faslda Qorachor No'yondan tarqalgan avlodlar, ularning soni, ismi, Amir Temur davrigacha yetib kelgan vakillari haqida ham batafsil ma'lumot keltirgan. Mazkur daqiq faktlardan Amir Temurning ajdodlari Ibn Arabshoh yozganidek "baqiroq cho'ponlardan" [22: 77] emas, balki ilmli siyosatdon va mohir harbiy

[1] Ushbu faslning o'zbek tilida tarjimasi mavjud. Qarang: [5: 159–166].

amirlardan bo’lgani yana bir bor tasdig’ini topadi. Zero, Nizomiddin Shomiy ta’kidlaganidek: “Chingizxon(ning) “Kimda-kim, bilimni, yosoqni, siyosatni, botirlikni, rasm-rusum rioyasini do’st tutsa, Chig’atoyga mulozimat qilishi lozim”, degan farmoniga muvofiq Amir Temurning 5-bobosi Qorachor No’yon Chig’atoyxon qo’shinlariga yo’lboshchi etib tayinlangan edi [7: 26–27].

Nizomiddin Shomiy va Ibn Arabshoh asarlarida Sohibqiron ajdodlari tarixiga doir qaydlar mavjud emas, faqat Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asari muqaddimasida Amir Temur shajarasida kelgan 14 ta ajdodi va ularning podsholigi haqida batafsil yozilgan [13: 22*a*–27*б*].

Devon ishlarini yurgizish, kengashlar va saltanat barpo etishga doir ishlari. Hofizi Abru asarida Amir Temur devoni faoliyatiga doir alohida fasl ajratmagan, biroq devon va sultonlik ishlarini tartibga solish uchun o’rnatgan qoidalari, Chig’atoy ulusida avj olgan ichki ziddiyat va boshboshdoqlikni bartaraf etib, hokimiyatni qo’l ostida birlashtirgani, barcha amirlarini qurultoyga yig’ib, ulardan bay’at olganini debocha va keyingi mavzular bayonida qisman ta’riflagan [25: 442, 445]. Sharafiddin Ali Yazdiy esa Amir Temurning ilk qurultoyi va devon tartiblari haqida batafsilroq yozgan [13: 141*a*–143*a*].

Hofizi Abru o’z davrining Qur’on hofizi va hadisshunos olimi sifatida asarning kerakli o’rinlarida Qur’on oyatlari va hadislardan ham namunalar keltirib o’tadi. Masalan, Amir Temurning toju taxtga ega bo’lishi Allohning ne’mati ekanini Qur’oni karim “A’rof” surasi 128-oyatdan olingan quyidagi kalima bilan dalillaydi “Bu yer shak-shubhasiz Allohnikidir. Uni O’zi xohlagan bandalariga meros qilib berur. Oqibat-natija esa taqvodorlarniki (Allohdan qo‘rqqanlarniki) bo‘lur” [25: 12; 16: 624].

Asarda Amir Temurning davlat boshqaruvidagi mahorati haqida to’xtalinib: “[U] jahonni boshqarish va komronlik borasida tajribali xonlar va dunyo kezgan boshqaruvchilardan saboq olgandek edi” deb ta’riflangan [25: 14]. Shuningdek, Amir Temur saltanatiga tobe’ hududlar va ularning tarixiga doir keng ma’lumotlar ham keltirilgan [25: 14; 42].

Ma’lumki, “Temur tuzuklari”da Amir Temur davlat ishlarining to’qqiz ulushini kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushini esa qilich bilan tartibga solganligi haqida yozilgan [11: 15]. Hofizi Abru ham Amir Temur odatlaridan yana bir sifatida uning har bir ishda donishmandlar bilan qayta-qayta mashvarat qilishini va mashvaratdan

so’ng kerakli qaror qabul qilishi qayd etilgan [25: 29]. Ibn Arabshoh asarida, majlis tugaganidan so’ng Amir Temur o’zining yaqin amirlari bilan qaytadan majlis qurib, masalani har tomonlama puxta o’ylab, diqqat bilan muhokama qilishi e’tirof etilgan [22: 402]. Hofizi Abru ham sohibqironning fazilatlari qatorida uning mazkur odatini sanar ekan, har bir ishda donishmandlar bilan qayta-qayta mashvarat qilishini va mashvaratdan so’ng kerakli qaror qabul qilishini qayd etib o’tgan [25: 29].

Sarkardalik qobiliyati va maxsus harbiy bo’linmalari ta’rifida. Ta’kidlab o’tilganidek, Hofizi Abru Amir Temur harbiy yurishlarining ko’pchiligida tarixchi sifatida ishtirok etib, voqea tafsilotini yozib borgan. Xususan, sohibqironning kam sonli lashkar bilan ko’plab hududlarni egallay olgani, qudratli dushmanlarni ham bo’ysundirganini sarkardalik qobiliyati sifatida ta’riflab, jangu jadal, harbiy hiylalar borasidagi mahoratini ham batafsil yoritadi [25: 27].

Amir Temurning odatlaridan yana biri shu ediki, biron tomonga harakat qilishni istasa, xodimlaridan ushbu mavzening yo’llari, ob havosi, o’t-o’lani, pasttekisligi-yu tog’ligi, holati-yu qiyofasi haqida xabardor qilishlarini buyurar, va xodimlari “aksariyat hollarda bu ma’lumotlarni maktub orqali uning arziga yetkazar edilar” [25: 27–28]. Tekshiruvdan so’ng har bir guruh askariga belgilangan tartibda o’z manzillaridan harakat qilishlari ta’kidlanar edi.

Ibn Arabshoh esa “Ajoib al-maqdur”da Amir Temurning xufiyalari toifasi haqida to’xtalar ekan bu masalani bir oz salbiy ruhda talqin etadi: “U yerlarning barcha tomonlarida o’z ayg’oqchilarini tarqatib, qolgan mulklarida esa josuslar qo’ygan edi” [22: 399].

Hofizi Abruga keltirilishicha, Amir Temurning qo’shinlari tarkibida har bir tog’u changalzor yo’llaridan askarlarning yo’li tushadigan joylarni farsangma-farsang [1] toshu tikandan tozalovchilar, daryolarning kechuvlaridan o’tish uchun qayiq yasovchi qayiqsozlar, yo’llaru ko’priklar quruvchi mohir ustalar guruhi ham mavjud bo’lgan [25: 28].

Ilmiy majlislari va ilmu hunar ahliga e’tibori. Hofizi Abruning qayd etishicha, Amir Temur davlat ishlaridan forig’ bo’lgach, atrofidagi

[1] Farsang (forscha: farsax, porsang, porasang) – Sharqda, jumladan, O’rta Osiyoda qadimdan ishlatib kelingan masofa o’lchov birligi. Bir farsang, taxminan, 9–12 ming qadamga yoki 6–8 km.ga teng. Matnda farsangma-farsang so’zi qadam-baqadam ma’nosida qo’llangan.

sharafli olimu fuzalolar bilan o’z saroyida shariatning mazmunli masalalari, ilmning latif qirralari va moddalar haqiqati haqida bahsu munozaralarga boy ilmiy majlis yig’gan [25: 30]. Majlislarida ko’pgina ilmiy mavzulardagi bahslar natijasida daqiq masalalar o’z yechimini topishi, ko’pchilik ishtirokchilar muammolar haqiqatini tushunib olganlar, hattoki, tibbiyot va ilmi nujumdan xabardor bo’lganlar [25: 16]. Bu mavzu Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”sida qator dalillar bilan keltirilgan, tadqiqotlarda jalb etilgan [4; 6]. Hofizi Abru ma’lumotlariga ko’ra, Amir Temur har bir qo’lga kiritgan mamlakatidan ilm va hunarga ega kishilarni Movarounnahr, xususan, Samarqand va Keshga imoratlar barpo etish maqsadida olib kelgan. Uning davrida Samarqandda turli diyorlarning mashhur hunarmand vakillari mavlud bo’lgan [25: 32]. Bu “Ajoib al-maqdur”da quyidagicha qayd etilgan: “Temur har qaysi hunar va kasb bo’lmasin, agar unda biron fazilat va sharofat bo’lsa, shu kasb egalariga g’oyatda mehr qo’ygan edi” [22: 398].

Muarrix Amir Temurning sayidlar, din ulamolari va ulug’ zotlarga ehtirom ko’rsatishi, ularni doimiy maosh va haq-huquqlar bilan ta’minlashi, o’z himoyasiga olishi, ularga vaqf mulklari belgilashi, ushbu munosabatlarning qonun bilan kafolatlanishi masalasini “Vaqf mulklari [ishi]ga qat’iyan e’tiroz qilmas edi. Vazirlariga “vaqf mulklaridan xazina uchun [soliq] olmanglar”, deb buyurar edi”, jumlasida ko’rish mumkin [25: 15]. Xuddi shuningdek, Ibn Arabshoh ham Amir Temurning ilm ahliga mehribonligi, sayyidlaru ulug’ kishilarni o’ziga yaqin tutishini e’tirof etib o’tgan [22: 379].

Amir Temur tarix ilmiga etiborli bo’lib, tarixiy qissa, hikoya va rivoyatlar tinglashi nasablar, ummatlar tarixi, turk, arab va ajamlarning o’tmishi, mojarolariga qiziqishi sababidan bu ilmning tarmoqlarini chuqur o’rganib, o’z zamonining tarix fanidan bahramand kishisiga aylangani “Zubdat at-tavorix”da dalillar bilan keltirilgan [25: 15]. Zero, Ibn Arabshoh ham o’z paytida: “Temur tarix kitoblari, ... [ni] – safarda ham, xadarda ham – o’qib, qunt bilan tinglar edi”, deb yozib qoldirgan [22: 398].

Hofizi Abru Amir Temurni o’z zamonasi tajribalariyu sir-asrorlaridan ham xabardor bo’lganligi haqida fikrlarini uning egallagan hududlarini xaroblik illatidan va ishratxonalardan tozalaganligi bilan

dalillaydi. Kuniga bir qancha to'mon[1] foyda ko'ruvchi Bag'dodning Sulton bozori, Tabriz timchasi, Sultoniyaning uzun guzari (yoki kochasi), Sheroz ishratxonasi, Kirmonning quyi guzari, Xorazm mayxonasi faoliyatiga Amir Temur tomonidan chek qo'yilishi shular jumlasidandir [25: 15–16]. "Zubdat at-tavorix" XIV–XV asrning birinchi yarmi tarixiga oid birlamchi manba ekanligi uning shu kabi muhim faktik ma'lumotlarida namoyon bo'ladi. Zero, o'z davrining boshqa manbalarida bu haqda ma'lumot keltirilmagan.

Amir Temurning mulk taqsimotidagi ishlari xususida. "Zubdat at-tavorix"da keltirilishicha, Movarounnahrning ko'lamli dashtlari-yu Xurosonning bepoyon kengliklari, Mozandaron changalzorlari-yu Ray biyobonlari, Ozarbayjon yayloqlari-yu[2] qishloqlari, Armanu Gurjiston, Diyorbakru Kurdiston [o'lkalarining] chorvadorlari va cho'ponlari Amir Temur hukmi ostida bo'lgan. Shu bilan birga tarixchi uning suyurg'ollari, in'omlari, iqtootlari[3], xarjlari, ehtiyojmandlar va davlat arboblariga tayinlanadigan molu mulklari, shuningdek, xotunlar, amirlar, vazirlar, peshvolar, mashoixlar, qurolbardorlar, lashkarlar, xizmatkorlar, chokarlar va xodimlariga belgilangan maoshlariga doir ko'pgina ma'lumotlar berib, bu boradagi barcha ishlarni o'zi nazorat qilgan [25: 25]. Davlat ayonlari-yu fuqarolariga in'omlar va tuhfalar ulashishda saxiy, ammo zaruratsiz isrofu xarjlarga e'tirozli bo'lgan va keragidan ortiq sarf qiluvchilarni in'omu tortiqlardan man etgan [25: 28].

Amir Temur davrida suyurg'ol mulklari har yili bir marotaba devonda nazoratdan o'tkazilgan va uni tasdiqlovchi hujjat yangilab turilgan. Bu haqda Hofizi Abru ham quyidagicha qayd etib o'tgan: "Suyurg'ol qaydlarida mavjud barcha suyurg'ol [mulk]lardan har yili devonda yangi hukm talab qilinar edi" [25: 26]. Ushbu o'ziga xos nazorat uslubi o'z navbatida suyurg'ol egalarini devon nazoratidan chiqib

[1] To'mon – o'n ming dinorga teng pul birligi. To'mon Safaviylar davrida 50 misqol og'irligidagi kumush tanga, Mo'g'ullar va Elxoniylar davrida o'n ming dinorga teng bo'lgan. Shuningdek, o'n ming sarbozlariga ega lashkar ham to'mon yoki tuman deb atalgan.

[2] Yayloq (turkcha – ییلاق) – Yaylov.

[3] Iqtoot (iqto – arabcha, ulush bo'lib berish) – Movarounnahr, xususan, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida o'rta asrlarda oliy hukmdor tomonidan muayyan shaxslarga, yirik xizmatlari uchun in'om qilinadigan chek yer. Iqto mulkining egasi iqtodor deb yuritilgan. Amir Temur va Temuriylar davrida iqto o'rnida asosan, tyul, suyurg'ol, boburiylar davrida esa, jogir atamalari qo'llanilgan.

ketmasligi uchun zarur tadbir bo'lgan. Mazkur tartiblar haqidagi "Zubdat at-tavorix"da kelgan dalillar boshqa asarlarda uchramaydi. Shu jumladan, Amir Temur uchun turli o'lkalardan olib kelingan hadyalar haqidagi qaydlarida, to'y-hasham va bazmlardan tashqari har kuni kamida o'n ming, balki undan ko'proq hadya-yu in'omlar jamlanganligi haqida bir oz mubolag'a ishlatgan chog'i. Biroq, uning ushbu hadyalar qatorida ipak matoning 14 xil turi, zardo'zi to'n va liboslar, bezakli kulohlaru kamarlarning bir qancha turlari haqida keltirgan ma'lumotlaridan o'sha davr kiyim-bosh va matolari haqida zaruriy ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin [25: 18].

Amir Temurning avlodlari tarbiyasiga e'tibori (avlodlari shajarasi). Sohibqironning o'z farzandlari-yu nevaralariga nisbatan g'amxo'rligi va himmat ko'rsatishi haddan ziyoda bo'lgan. Avlodlarning soni bir bahodirga ziyoda bo'lganligi mujdasini yetkazsalar, xushxabar yetkazuvchini hadyalar bilan siylar, farzandiga doyalik qiluvchilarni o'zi nazoratdan o'tkazar, homilador kelinlarining har biriga muhofizlar tayinlar, farzand dunyoga kelgach taniqli munajjimlarga mazkur tug'ilishning zamoni va makonini belgilab, humoyun tole'ining darajasini aniqlashiga farmon berar, ularga munosib mulklaru askarlar ajratar, har bir farzandining tarbiyasiga alohida e'tibor berib, ularga ilmli otabegilar tayinlar edi. Otabegilarga yosh shahzodaning yeyish-ichishiga, yurish-turishiga, ilmu odob o'rganishiga, yetuk podshohlik ma'rifati-yu odoblarini, rasm-rusumlarini qunt bilan o'rgatishlari tayinlangan [25: 26–27]. Ayni paytda asarda Amir Temur avlodlari soni haqida ham aniq ma'lumot keltirilgan: "Hazrat Sohibqiron – Alloh uning dalilini yoritsin – hayotligi chog'ida farzandlari va nevaralarining soni qariyb yuzga yetgan edi, chunonchi, bu humoyunning nasl-nasabi va avlodlarining shajarasida[1] qayd etilgan" [25: 27]. Hofizi Abruning ushbu ma'lumotlari Amir Temur davridagi avlodlari soni, farzand tarbiyasiga oid jarayonlarni o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunyodkorlik ishlari. Tarixiy manbalardan ma'lumki, Amir Temur Samarqand va Keshdan tashqari o'zi egallagan hududlarning har birida bunyodkorlik ishlarini amalga oshirgan va ularning aksariyati bugungi kunda ham saqlangan. Mazkur tarixiy obidalarning qurilish jarayoni haqida

[1] Muallif Amir Temurning avlodlari shajarasini tuzib "Zubdat at-tavorix"ning ikkinchi jildi oxirida alohida faslda qayd etgan. Bu yerda shu nazarda tutilmoqda.

o’sha davr muarrixlari qatorida Hofizi Abru ham “Zubdat at-tavorix” asarida muhim faktlar keltirib o’tgan: “[Sohibqironning] xayrli ishlarining yana biri uning qurdirgan imoratlaridir. Jahon uzra masjidlar, madrasalar, xonaqohlar, rabotlar, hovuzlar, karvonsaroy binolari, quduqlar, korizlar[1], cho’lu biyobonlarni obod qilguvchi suv [inshoot]lari, shular jumlasidandir” [25: 21–22].

Ayniqsa, dorussaltana Samarqand masjidi [2] qurilishi alohida tavsiflanib, istehkomlari marmaru billur toshlaridan, mehrobi temir va po’latdan qurilgani, g’aroyib shaklda badiiy va latif kitobiy naqshlar bilan bezatilgani, to’rt yuz [3] marmar toshli ustunlarini manjaniqlar [4] bilan Hindistondan keltirilgan 95 ta yirik fillarga ortib, Samarqandga olib kelingani haqida ham ma’lumot berlgan. Shu bilan birga, peshtoqlariga bitilgan Qur’oni Karim oyatlari Basra va Bag’dodlik ustozlar [5] masjid binosini ma’qaliy[6] naqshlar va bo’ryolar[7] bilan bezagani, Fors va Kirmon usta to’quvchilari har bir xonasining andozasiga muvofiq ipak qolinlar tayyorlagani, Halab ustalari esa, oltin singdirilgan qandillarni gumbazlarining yuqori qismiga o’rnatganlari haqida ham ta’riflangan [25: 23]. Bugungi kunda Bibixonim nomi bilan ataluvchi ushbu masjid o’z davrida Amir Temur masjidi va Samarqand jome’ masjidi nomlari bilan atalgan [25: 23–24].

Sharafiddin Ali Yazdiyning yozishicha, Jome’ masjidining qurilishida Ozarbayjon, Fors, Hindiston va boshqa mamlakatlardan besh yuz sangtarosh jalb etilgan va yana besh yuz kishi tog’larda tosh kesish bilan shug’ullangan va bu ishda Hindistondan olib kelingan 95 ta baquvvat

[1] Koriz – yer osti suvlarini yig’ish va ularni yer yuzasiga chiqarish uchun quriladigan yer osti inshooti bo’lib aholini suv bilan ta’minlash va yerlarni sug’orish maqsadida qo’llaniladi. Koriz, asosan, tog’oldi hududlarida quriladi. Tog’oldi lalmi joylarga suv chiqarish maqsadida qurilgan maxsus ko’tarma inshoot ham koriz deb yuritilgan.

[2] Jome masjid (Bibixonim masjidi) nazarda tutilmoqda.

[3] Sharafiddin Ali Yazdiy 480 ta ustun, deb keltiradi. Qarang: [8: 347*a*]

[4] Manjaniq (arabcha, toshotar harbiy qurol) – tosh, g’o’la va olovni uzoq masofaga otuvchi maxsus qurilma. Undan dushman qo’shinlari ustiga hujum qilish vaqtida yoki qal’alar devorini yorish maqsadida ishlatiladi. Manjaniq qadimgi Yunon va Rimda ishlatilgan, ularning manbalarida *katapulta* nomi bilan yuritilgan. Bu yerda manjaniq deb yuritilayotgan qurilma – yirik toshlarni fillarning ustiga yuklash va imorat qurilishida toshlarni yuqoriga ko’tarish maqsadida ishlatiladigan moslamadir.

[5] Ustozlar – binokorlik sohasining mohir ustalari.

[6] Ma’qaliy – Ko’fiy xatining bir turi. Bu xat turi asosan, bino va inshootlar devorlarini bezashda qo’llaniladi.

[7] Bo’ryo (bo’yra) – qamishdan to’qiladigan to’shama mato, asosan, devorlarda bezak sifatida ilib qo’yishgan, shuningdek gilam o’rnida ham ishlatilgan.

fillardan foydalanilgan [13: 346*б*–347*а*]. Bundan ko'rinib turibdiki, "Zubdat at-tavorix" va "Zafarnoma" asarlari ko'p o'rinlarda bir-birini to'ldirishi ham ko'zga tashlanadi. Ta'kidlash joizki, ayni shu ta'riflar, Amir Temurning bunyodkorlik ishlari bo'ycha keltirilgan ushbu faktlar Shomiy, Ibn Arabshoh va hatto Klavixo asarlarida ham mavjud emas.

Hofizi Abru Amir Temurning bunyodkorlik ishlaridagi muhim odatlaridan yana biri haqida boshqa asarlarda uchramaydigan quyidagi ma'lumotlarni keltiradi: "Amir Sohibqiron har gal imorat [barpo] qilganida uni bir necha hissaga ajratib maxdumzodalar, amirlar va arkoni davlati [vakillari]ni har bir hissaga dorug'a[1] etib tayinlar va o'zaro raqobat bilan ishlashlari uchun topshiriqlar berar edi. Qaysiki bir hissa [sohibi topshiriqlarni bajarishda] jiddu jahd qilayotganligini bilish maqsadida har tunda bir necha bor ulardan xabar olar edi. Kimniki ishi odimlagan bo'lsa, [unga] tahsin aytib, in'omlaru suyurg'ol[2] berar edi va agar [qaysi birining] ishi orqada qolgan bo'lsa, yana [xizmatga] da'vat qilar, [so'ngra] malomat qilib, jazoga tortar erdi" [25: 24].

Shatranj o'yiniga qiziqishi haqida. Amir Temurning shatranj o'yiniga qiziqishi tarixiy manbalardan ma'lum. Xususan, Ibn Arabshohning "Ajoib al-maqdur"ida Amir Temurning "o'z fikrini peshlash maqsadida muttasil shatranj" o'ynash zikr etilgan [22: 398].

Hofizi Abruning yozishicha esa, "[Amir Sohibqironning] shatranj o'yiniga ishtiyoqi ziyoda edi. ... Qaysiki shaharni fath qilishni istasa, avvalo, u yerdan shatranj o'yinchisi bo'lgan kimsani talab qilar edikim, aksariyat vaqtlarda [u bilan] o'zi o'ynar, ba'zan uning oldida o'ynamoqlarini buyurar edi" [25: 30–32].

[1] Dorug'a – mo'g'ulchadan "nazoratchi", "shahar hokimi" ma'nolarini anglatadi. Dorug'a oliy hukmdorning hududlardagi noibi bo'lib, aholini ro'yxatga olish, mahalliy xalqdan qo'shin to'plash, pochta xizmatini yo'lga qo'yish, soliqlarni yig'ish va ularni oliy hukmdorlga yetkazish kabi vazifalarni bajargan.

[2] Suyurg'ol – (mo`g`ul tilida "in`om", "sovg`a") oliy hukmdor tomonidan arkoni davlat, sarkardalar, shahzodalar va yaqin kishilariga davlat oldidagi maxsus xizmatlari uchun beriladigan yer, suv kabi mulklar. Suyurg'ol tizimi Mo'g'ullar istilosidan so'ng Movarounnahr, Dashti Qipchoq, Yaqin Sharq mamlakatlarida urf bo'lgan. Suyurg'olga berilgan yer avloddan-avlodga meros bo'lib o'tgan. Suyurg'ol egalari davlatga to'lanadigan soliqlardan ozod etilib, olgan daromadi va o'ziga qaram aholidan ixtiyoricha foydalanish huquqiga ega bo'lgan. Amir Temur va Temuriylar davrida suyurg'ol mulklari zabt etilgan yerlarning oldingi egalari va ularning farzandlariga ham berilgan. Shuningdek, o'z farzandlari, nevaralari, qarindoshlari, atoqli lashkarboshilari, amir va beklariga ham suyurg'ol tarzida yer-mulk bergan.

Asarda Xoja Ali Shatranjiy at-Tabriziy, Mavlono Hisomiddin Ibrohimshoh Kirmoniy, Xoja Abdulvahhob Tabriziy, Xoja Yusuf Buxoriy, Ustod Shamsiddin Qoziruniy kabi Amir Temur davrining mohir shatranj o'yini ustalari qatorida muallif o'zini ham sanab o'tgan. Ularning har birini Qur'on, hadis, fiqh, tabobat va boshqa sohalarda yetuk olim bo'lganini ta'kidlab, o'zi haqida "ortiqcha so'z aytmoqqa hojat yo'q" deya quyidagi baytni keltirgan:

Bayt: *Va in bandai kamtarin che guyad az xud,*
Zi-n jins ki moyaiym, jahone ba jo'y [25: 31–32].

Mazmuni: *Bu bandai kamtarin nima desin o'zidan,*
Bu jins bilan jahon ichra ariqdagi [bir qatra] suvdirmiz.

Amir Temur hayotining so'nggi kunlari haqida esa Hofizi Abru quyidagilarni yozadi: "Amir Sohibqiron mijozida marg g'olib kelgan damda… amirlari, arkoni davlati va yaqinlari odatga muvofiq, har birlari [uning haqqiga] duo qilar edilar. Hazrat bemor holi bilan iltifot qilib, avval bir barmog'ini, so'ngra ikki barmog'ini ko'tarib ko'zi bilan ishora qildi, undan so'ng [amirlaridan] bu ishora nimani anglatadi deb so'radi. Ba'zi mutasaddi amirlar buning ma'nosi shuki: "Hazrat [Sohibqiron]ning [tuzalishlari uchun] bir iloj yoki ikki iloj qolgandir", deb o'z javoblarini bayon qildilar. Hazrat Sohibqiron [esa]: "[Men] unday demoqchi emasman … sizlarning oralaringizda bir kun, yo ikki kun borman yoki yo'q" [deya] taqdirga tan berib, o'z ahvolini tekshirib, bayon qilishlari uchun tabiblarni chaqirishni buyurdi. Amirlar ro'y berganlarni [tabiblarga] bayon qildilar. [Sohibqiron] tabiblarga [vaziyatni] rost bayon qilish va xushomadgo'ylik qilmaslikni buyurib, to'g'rilik unga xush kelishini aytdi. Tabiblar [holatni tekshirib] arz qildilar: "Allohning inoyatidan umidvormiz, Parvardigorning [rahmati] soyasi [bo'lmish podshohimiz] rub'i maskunning[1] mamlakatlari uzra boqiy va bardavom bo'lgay degan umiddamiz. Ammo tibbiyot nuqtayi nazaridan tekshirish natijasining belgilari [shuni ko'rsatadiki], hazratning [aytganlaridek] taqdirlarida yozilgan narsa bo'lur". Ba'zi bir mulozimlar, hakimlardan, "Nega bunday javob qildingiz", deb jahli chiqdi. Hazrat [Sohibqiron] bemor bo'lishiga qaramay ularga tahsin aytdi va bu

[1] Rub'i maskun –yer sharining quruqlikdan iborat qismi.

voqea sakkiz yuz yettinchi yilning o'n oltinchi sha'bonida [1], O'tror sarzaminida yuz berdi [25: 32–33].

Muallif aytur, sher: *Che sud az lashkari jarroru bisyor,*
Chu nozil shud qazo dar bobi O'tror.

Mazmuni: *O'tror ostonasiga yetib kelganda qazo,*
Ne foyda kelur, son-sanoqsiz jarror qo'shindan.

Sher: *Zi divoni qazo dar nisfi Sha'bon shud ba rohi o',*
Bididam "sadri Jannat" bud ta'rixi vafoti o'.

Mazmuni: *Taqdir devoni bilan uning [oxirgi] yo'li sha'bon yarmida bo'ldi,*
Uning vafoti ta'rixini ko'rsam, "sadri Jannat"[2] ekan…" [25: 34].

Hofizi Abru "Zubdat at-tavorix"ning "Amir sohibqironning fe'l-atvori, xulqi va yosoqi tarixidan muxtasar xulosasi bayoni"da ko'tarilgan mavzu haqida qisqacha ma'lumot bergani, uning tug'ilishidan to vafotiga qadar kechinmalarini keyingi fasllarda batafsil yoritishini yozadi [25: 34].

Muarrix garchi Amir Temur haqida boshqa mualliflarga nisbatan ko'proq ma'lumotga ega bo'lsa-da, "Zubdat at-tavorix"da ayrim muhim masalalar, xususan, sohibqironning tashqi ko'rinishi haqida negadir ma'lumot bermagan. Ibn Arabshoh esa bu borada garchi o'zga shaxslardan eshitganlari asosida bo'lsa-da, muhim chizgilarni qoldirgan [22: 393].

Shuningdek, Hofizi Abru Amir Temur bunyod etgan Qarshi ko'shki haqida, arab faylasufi Ibn Xaldun bilan ko'rishgani[3], Hofiz Sheroziyning bir g'azali yuzasidan shoir bilan munozara qilgani borasida ham indamagan[4]. Bu kabi holatlar, albatta, davr nuqtayi nazaridan tabiiy hol. Shu sababdan, Amir Temurga oid asarlar bir-birini to'ldirib keladi va tadqiqotchidan manbalarni qiyosiy tahliliy va tanqidiy tadqiqni talab qiladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Hofizi Abru Amir Temur hayotining oxirgi salkam 20 yilida uning xizmatida bo'lib, devon ishlarida, diplomatik aloqalarida, harbiy yurishlarida, ilmiy majlislarida, bunyodkorlik ishlarida bevosita ishtirok etgan, voqea-hodisalarga shaxsan guvoh bo'lganligi haqida "Zubdat at-tavorix"da ham qayd etgan [25: 747; 852; 912; 1011]. Ayni mana shu jihatlariga XIV–XV asrlar tarixiga doir

[1] Hijriy 807-yilning 16 Sha'bon kuni – milodiy 1405 yilning 17 fevraliga to'gri keladi.
[2] Sadri Jannat – so'zi abjad hisobida Amir Temurning vafoti sanasi (1405 yil 18 fevral)ga to'g'ri keladi.
[3] Amir Temur va Ibn Xaldun uchrashuvi haqida qarang: [22: 394–397].
[4] Amir Temur va Hofiz Sheroziy o'rtasida bo'lib o'tgan munozara haqida qarang: [23].

tadqiqotlarda yetarli darajada e’tibor qaratilmagan. Shu nuqtai nazardan, asar Amir Temur, Shohrux Mirzo davridagi, Movarounnahr va Xuroson tarixining XIV asr ikkinchi yarmi va XV asrning 30 yillariga oid tadqiqotlarni yangi faktlar bilan boyitishga xizmat qiladi.

Hofizi Abru “Zubdat at-tavorix”da siyosiy va sulolaviy tarixdan tashqari, XIV–XV asrlar ijtimoiy jarayonlarining bir necha yo’nalishlarini qamrab olishga harakat qilgan. Asarda Amir Temurning harbiy yurishlari xronologiyasidan tortib, unga zamondosh olimlar, diplomatik yozishmalari matni (munshootlari), Eron, Arab, Dashti Qipchoq, Mo’guliston, Kavkaz va Kichik Osiyo mamlakatlarining XIV asr tarixi ham keng yoritilgan Amir Temur personifikatsiyasiga doir yuqorida keltirilgan ba’zi ma’lumotlar o’z davrining boshqa manbalarida uchramaydi. Shu jihatlari bilan ham Hofizi Abruning “Zubdat at-tavorix” asari Amir Temur tarixini o’rganishda birlamchi manbalar qatorida turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдурраззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн / Форс тилидан таржима, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи А. Ўринбоев. Масъул муҳаррирлар: А. Қаюмов, Муҳаммад Али. II жилд, биринчи қисм. Тошкент, 2008.
2. Бартольд В.В. Работы по отдельным проблемам истории Средней Азии / Сочинения. Т. II (часть 2). Москва, 1964.
3. Бартольд В.В. Хафизи Абру и его сочинения / Сочинения. Т. VIII. Москва, 1973. С. 74-92.
4. Бўриев О. Соҳибқирон Амир Темур. Тошкент, 2011.
5. Бўриев О. Ҳазрат Соҳибқироннинг мўътабар насл-насаби ҳақида // Ўзбекистон тарихи Хрестоматия. № 2/2 (XI–XV асрлар). Тошкент, 2014.
6. Мўминов И. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли. Тошкент, 1968.
7. Низомиддин Шомий. Зафарнома / Форс тилидан ўгирувчи – Ю.Ҳакимжонов, таржимани қайта ишлаб нашрга тайёрловчи ва масьул муҳаррир – А.Ўринбоев, изоҳ ва луғатларни тузувчи – Ҳ.Кароматов, жуғрофий номлар изоҳи – О.Бўриевники. Тошкент, 1996.

8. Резаголизадех Ахангар Наргес Вахаб. Историография Хафиз-и Абру в его Зейли Джаме ат-таворих // Вестник / Научный журнал Таджикского национального университета. Серия гуманитарных наук. Душанбе, 2014. № 3/7. С. 5–8.
9. Собрание восточных рукописей АН РУЗ. История / Состав. Д.Ю.Юсупова, Р.П.Джамилова. Ташкент, 1998.
10. Стори Ч.А. Персидская литература / Биобиблиографический обзор. Перев. с англ., перераб. и допол. Ю.Е. Брегель. Т. I. Москва, 1972.
11. Темур тузуклари / Форсчадан А.Соғуний ва Ҳ.Кароматов таржимаси. Тошкент, 1991.
12. Фасиҳ Хавофий. Мужмали Фасиҳий / Форс тилидан таржима, кириш, изоҳлар ва кўрсатгичлар муаллифи: тарих фанлари доктори, профессор, академик Д. Ю. Юсупова. Тошкент, 2018.
13. Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома / Фотофаксимил нашр. Нашрга тайёрловчи, сўз боши, изоҳ ва кўрсатгичлар муаллифи А. Ўринбоев. Тошкент, 1972.
14. Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома (Мовароуннаҳр воқеалари 1360–1370) / Масъул муҳаррир, сўз боши муаллифи ва нашрга тайёрловчи А.Ўринбоев, таржима ва изоҳлар муаллифи О.Бўриев. Тошкент, 1994.
15. Якубовский А. Тимур (Опыт краткой характеристики) // Вопросы истории. Москва, 1946. №. 8–9. С. 42–74.
16. Қуръони карим: маъноларининг таржима ва тафсири / Таржима ва тафсир муаллифи: Абдулазиз Мансур. Тошкент, 2007.
17. Ғиёсиддин ибн Ҳумомиддин Хондамир. Ҳабиб ус-сийар фи ахбори афроди башар / Форс тилидан таржима, муқаддима муаллифлари – Ж.Ҳазраткулов, И.Бекжонов. Масьул муҳаррир – А.Аҳмедов. Тошкент, 2013.
18. Ҳофиз Абру. Шомийнинг “Зафарномаи шоҳий” асарига илова // Низомиддин Шомийнинг “Зафарнома” китобида / Форс тилидан таржима, изоҳ ва кўрсатгичлар муаллифи – О.Бўриев. Тошкент, 1996.
19. Ғийāсаддīн Али. Дневник похода Тīмӯра в Индию / Перевод с перс., педисл. и прим. А.А. Семенова. Москва, 1958.

20. Faromarzi F. Hofizi Abru va uning ilmiy merosiga doir ayrim mulohazalar // TerDU ilmiy xabarnomasi. 2020. 2-son. B. 38–43.
21. Faromarzi F. Hofizi Abru “Zubdat at-tavorix” asari va uning o’rganilishiga doir // Марказий Осиёда ислом маданияти ва саньати: ўтмиш ва ҳозирги замон. “Бухоро – ислом маданияти пойтахти” номли форуми доирасида ўтказилган халқаро онлайн конференция материаллари. Тошкент, 2020 йил 28-29 май. Б. 188–197.
22. Ibn Arabshoh. Amir Temur Tarixi (Ajoib al-maqdur fi-tarixi Taymur) / Arab tilidan tarjima va izohlar, so’zboshi muallifi U. Uvatov. I–II qismlar Toshkent, 2019.
23. Nosir Muhammad. Amir Temur va Hofiz Sheroziy. Toshkent, 2018 // URL: http://www.saviya.uz/ijod/adabiyotshunoslik/amir-temur-va-hofiz-sheroziy.
24. Hofizi Abru. Zubdat at-tavorix. Istanbuldagi Sulaymoniya kutubxonasi Fotih fondi qo’lyozmasi, № 4370/I.
25. حافظ ابرو. زبدة التواريخ / مقدمه، تصحيح و تعليقات: سيد كمال حاجى سيد جوادى. (ج. ١). تهران، ١٣٧٩/2001.
26. دكتر حسين انورى. فرهنگ بزرگ سخن. (ج. ٨). تهران، ١٣٨١/2003.

F. Fayzullo

Amir Temurning fe’l-atvori va yosoqi ta’rifi (Hofizi Abru “Zubdat at-tavorix” asari asosida)

Amir Temurning tarix sahnasidagi faoliyati haqida o’z davridayoq ko’plab asarlar yozilgan va ular davr tarixini o’rganishda bir-birini to’ldiradi. Bu holatni Amir Temur (1336–1405) saltanati tarixiga oid yozma manbalar misolida ham kuzatish mumkin.

Tarixchi va geograf Hofizi Abru (1361–1430) “Zubdat at-tavorix” (“Tarixlar sarasi”) asarida Amir Temur faoliyatining oxirgi 20 yilidagi voqeliklarni guvohi o’laroq yoritgan. Unda keltirilgan Amir Temurning shaxsiy fazilatlari, sarkardalik qobiliyati, adolati va yosoqi, ya’ni ilm va hunar ahliga e’tibori, ilmiy majlislari, kengashlari, bunyodkorlik ishlari, to’y va marosimlaridagi tartiblar, xodimlariga tayinlanadigan maoshlari, avlodlari tarbiyasiga munosabati, shaxsiy qiziqishlari ta’rifi tarixiy-

manbaviy asosda tahlil qilindi. Mazkur ma'limotlar G'iyosiddin Alining (XIV–XV) "Ro'znomai g'azovoti Hindiston" ("Hindiston g'azovoti kundaligi"), Nizomiddin Shomiyning (vaf. 1412) "Зафарномаи шоҳий", Sharafiddin Ali Yazdiyning (vaf. 1454) "Zafarnoma", Ibn Arabshohning (1388–1450) "Ajoib al-maqdur fi tarixi Taymur" ("Temur tarixida taqdir ajoyibotlari") asarlaridagi talqinlar bilan qiyoslandi. Manbalardan olingan Amir Temur fe'l-atvori va yosoqi ta'rifiga oid ixcham tarjimalar, avvalo, o'sha davr ruhiyati ifodalashi, qolaversa, ularning qiyosiy tahlili orqali ayrim ma'lumotlarning takroriy, o'xshash va farqli jihatlari aniqlandi.

Hofizi Abruning "Zubdat at-tavorix" asaridagi Amir Temur personifikatsiyasiga doir ba'zi ma'lumotlar o'z davrining boshqa manbalarida uchramasligi, shu jihati bilan ham bu asar sohibqiron tarixini o'rganishda birlamchi manbalar qatorida muhim ahamiyat kasb etishi dalillar asosida ko`rsatildi. Bu o'z navbatida, Amir Temur shaxsiyati haqidagi tasavvur va bilimlarimizni to'ldirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar. *Amir Temur, Hofizi Abru, Zubdat at-tavorix, yosoq, devon, Farang daryosi, Xoja Ali Shatranjiy, shatrnj, Shohrux Mirzo, dorug'a, Mavlono Hisomiddin, Movarounnahr, suyurg'ol, Samarqand, Boysung'ur Mirzo, Turkiston.*

Ф. Файзулла

Описание характера и йасака Амира Темура
(На основе произведения "Зубдат ат-таварих" Хафиз-и Абру)

О деятельности Амира Темура на исторической арене написано много работ, которые дополняют друг друга в изучении истории того периода. Об этом свидетельствуют письменные источники по истории правления Амира Темура.

Историк и географ Хафиз Абру (1361–1430) описал события последних 20 лет жизни Амира Темура (1336–1405) в своей книге «Зубдат ат-таварих». Личные качества Амира Темура, умение командовать, справедливость и доброта, т.е. внимание к науке и профессии, научные собрания, советы, творчество, процедуры на свадьбах и церемониях, заработная плата сотрудникам, отношение к воспитанию потомков, личные интересы. проанализированы на

историко-источниковой основе. Эта информация содержится в «Дневник похода в Индию» Гийасаддина (XIV–XV) («Дневник индийской газеты»), в «Зафарнама-и Шахи» Низамаддина Шами (ум. 1412), Шарафаддина Али Йазди (ум. 1454) «Зафарнома» сравнивалась с толкованиями Ибн Арабшаха (1388–1450) в произведениях «Аджайиб ал-макдур фи тарихи Таймур» («Чудеса судьбы в истории Тимура»). Краткие переводы характера и описания Амира Темура, взятые из источников, в первую очередь выражают психику того периода, а их сравнительный анализ выявил повторяемость, сходство и различие некоторой информации.

Свидетельства показали, что некоторая информация об олицетворении Амира Темура в произведении Хафиза Абру «Зубдат ат-таварих» не встречается в других источниках его времени, и поэтому данное произведение является одним из первоисточников в изучении истории Сахибкирана. Это, в свою очередь, служит для наполнения нашего воображения и знаний о личности Амира Темура.

Ключевые слова. *Амир Темур, Хафиз-и Абру, Зубдат ат-таварих, йасак, диван, река Фаранг, Ходжа Али Шатранджий, шатрандж, Шахрух Мирза, даруга, Мавлана Хисамиддин, Мавераннахр, суюргал, Самарканд, Байсунгур Мирза, Туркестан.*

F. Fayzullo

The description of the character and personality of Amir Temur (based on “Zubdat at-tavorix” by Hafiz-i Abru)

Many works have been written about the activities of Amir Temur on the stage of history, and they complement each other in the study of the history of the period. This can be seen in the written sources of the history of the reign of Amir Temur.

Historian and geographer Hafiz-i Abru (1361–1430) described the events of the last 20 years of Amir Temur’s (1336–1405) life in his book “Zubdat at-tavarikh”. Amir Temur’s personal qualities, commanding ability, justice, and kindness, i.e. attention to science and profession, scientific meetings, councils, creative work, procedures at weddings and ceremonies, salaries to employees, attitude to the upbringing of generations, personal interests The definition was analyzed on a historical-

source basis. This information is given in Giyasiddin Ali's (XIV–XV) "Newspaper Gazette of India" ("Diary of the Gazette of India"), Nizamiddin Shami's (d. 1412) "Zafarnomai Shahiy", Sharafiddin Ali Yazdi's (d. 1454) "Zafarnoma" were compared with the interpretations of Ibn Arabshah (1388–1450) in the works "Ajoib al-maqdur fi tarikhi Taymur" ("Wonders of destiny in the history of Timur"). The concise translations of Amir Temur's character and description, taken from the sources, first of all reflect the spirit of that period, as well as their comparative analysis revealed the repetitive, similarities and differences of some information.

Evidence has shown that some information about the personification of Amir Temur in Hafiz Abru's work "Zubdat at-tavorikh" is not found in other sources of his time, and therefore this work is one of the primary sources in the study of the history of Sahibqiran. This, in turn, serves to fill our imagination and knowledge of the personality of Amir Temur.

Key words. *Amir Temur, Hafiz-i Abru, Zubdat at-tavfrikh, yosaq, diwan, Farang, Khoja Ali Shatranjiy, shatarnj, Shakhrukh Mirza, daruga, Mavlana Hisamitdin, Mawaraunnahr, suyurgal, Samarkand, Boysunqur Mirza, Turkestan.*